

TARIXDA MARKAZIY OSIYA DAVLATLARINING BOSHQARUV SHAKLI

Rahimov Ahmadjon Rustambek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi 2-kursantlar vzvodi kursanti

Annatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan Qo'qon xonligidagi unvon va mansabdorlar, ularning vazifalari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'qon xonligi, Turkiston, Mingboshi, Qozikalon, Shayx ul-islom, Devonbegi, Otaliq*

Keyingi paytlarda tariximizning davlat, ma'muriy idora va mahalliy boshqaruv tizimi xamda ularni har tomonlama o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ilmiy doiraga jalb qilinmagan yozma manbalar, ma'lumotlarning borgan sari u yoki bu darajada tadqiq etilishi munosabati bilan yuqorida qayd etilgan sohalarni qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Markaziy Osiyoda markaziy apparat an'anaviylikka asoslangan va o'tmishdagi idoraviylik usullarini na'munasi sifatida xam nomoyon bo'ladi. Qo'qon xonligi XVIII asrning boshlarida bo'linib ketgan Ashtarxoniyalar saltanatiga qarashli bir xududda tashkil topib, 1876-yilning fevral oyiga qadar mavjud edi. Bu davlat XVII-XIX asrlarda Turkistonning tarixiy, siyosiy, xo'jalik va madaniy hayotida katta o'rin tutgan. Qo'qon xonligidagi unvon, mansab va amallar xaqida mahalliy mualliflardan "Turkiston viloyatining gazetisi" muharriri, Mullo Olim Maxdum Xoji, "Tarixi Turkiston" nomli asarida to'xtalib o'tgan. U xonliklardagi amaldorlarni 24 darajaga bo'lib, bu haqida quyidagilarni yozadi.

1.Mingboshi 2.Qo'shbegilik mansabi 3.Parvonachi 4.Shig'avul 5.Xudaychi 6.Tunqator 7.Noib 8.Otaliq 9.Dodxoh 10.Mextarboshi 11.Sharbatdor 12.Dasturxonchi 13.Xazinachi 14.Maxramboshi 15.Eshikog'aboshi 16.Ponsadboshi 17.To'qsabo 18.Devonbegi 19.Mirzaboshi 20.Sarkor 21.Miroxurboshi 22.Yuzboshi 23.Bekovulboshi 24.Daxboshi

Ushbu mansablarning hech qaysilarida muqarrar vazifa bo'lmay, qo'shbegilarga biror katta shahar, undan kichiklarga biror ariq berib, boshqa mansablarga podshoh nomidan ot,libos, aslaha, bir yild ikki uch marta g'allah va sarpo berilar edi.Qo'qon xonligida unvon va mansablar ularning ijrochilarining vazifalari va martabalariga qarab xarbiy, xarbiy-ma'muriy, saroyning unvon va mansablari, ma'muriy vazifalariga xamda diniy va diniy qozixona amallarga bo'linar edi.

Mingboshi-mo'g'ullar istilosi davrida mavjud bo'lgan ming nafar askarning boshlig'i.Ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi.Harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olardi.Qo'qon xonligida mingboshi amali SHERALIXON (1842-1844y) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan. Mashxur mingboshilar Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonquli qipchoq, Muhammad Diyor, Mullo Xolbek, Mirzo Axmad, Niyoz Muhammad, Aliquli, Abduraxmon Musulmonquli o'g'li va boshqalar bo'lganlar. Harbiylarga xizmatlari evaziga xon tomonidan muayyan mulk berilardi.Bunday mulk "Tanxo" bo'lib mulkdor tanxodor nomini olardi.Tanxodorlik xuquqi muayyan muddatga berilib, bir umrga xam berilishi mumkin edi. "Tanxo" to'g'ridan to'g'ri meros qolmasdi.Tanxodorning o'g'li-vorisi otasining vazifasiga o'tsagina bu mulk o'g'liga o'tardi.Ba'zan

muayyan mulkning yer, ariq, anxor, qishloq xiroji yoki tanobona solig'i xarbiy kishiga xizmati evaziga berilardi. Bu mulkning shakli „, tarxon” bo'lib egasi shu soliqlarni olardi. Harbiylarda o'z shaxsiy mulklari bo'lsa, xizmatlari evaziga ular soliq to'lashlardan ozod etilardi. Muayyan mulkdan xiroj olish huquqi (muayyan muddat uchun xam) tarxon yoki vaqf shaklidagi xarbiylar va ruhoniylarga berilgan. Xudoyorxon davrida mulkni “urg'u” (musodara) qilish yo'li xam qo'llanilib xazina to'latib turilgan. Biror ayb bilan, xatto kuchli sarkardalar, qabilalarning ashroflari va qo'shin amrlarining mol mulklari xam musodara qilinib, o'zlariga jazo berilgan. Bulardan tashqari xarbiy yurishlar natijasida qo'lga kiritilgan o'lja xarbiylarning qo'shimcha daromadlari hisoblanardi. Bunday yo'l bilan to'plangan mol mulk yurish qatnashchilari o'rtasida teng taqsimlanardi.

Otaliq- xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning xomiylari. Ular tarbiya bergan xonzoda taxtga o'tirganidan so'ng o'zlari xam yuqori mansab va amallarga munosib bo'lar edi. Buxoro amirligida yuqori eng oliy unvon hisoblanardi. Xonning riqob (o'zangi) ahliga kirardi. Otaliqlardan Musulmonquli (taxminan 1792 yil tug'ilgan bo'lib, 1852 yil noyabr oyida qatl etilgan), Aliquli (1830-31-1865 yillari) Qanoatshoh otaliq (1862 yil amir Muzaffar tomonidan qatl etilgan) Qo'qon xonligi tarixida katta o'rin egallaganlar.

Devonbegi -xon devonining sardori. (Buxororda XII darajali amaldor) Qo'qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi lavozimi bo'lgan, lashkarbeglar begi davrida bu o'lkada hatto 2 nafar Hakim devonbegi va Xudoyberdi devonbegilar bu vazifani bajarganlar. Ular qirol uchun zakot ishlari, viloyatning hisob-kitob ishlarini olib borganlar

Sarkor - xon amaldorlarining boshlig'i xonga tegishli ishxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham javobgar edi.

Qo'shbegi - harbiy qo'shinning boshlig'i. Yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshilik unvonini olishga da'vo qilardi. (Buxoroda eng oliy mansabdor shaxslardan hisoblanadi). Qo'shbegi mansabiga ko'tarilgan zot alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin bo'lgan. Umarxon davrida Rajab qo'shbegi, Muhammad Alixon zamonida Muhammad Sharif qo'shbegi (mingboshi) Mirzo Ahmad qo'shbegi (keyincalik mingboshi mansabiga ko'tarilgan) ma'lum o'rin egallaganlar.

To'qsabo -o'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy dastasining boshlig'i (Buxoro VII darajali mansabdor).

Pansadboshi - besh yuz nafar askardan iborat guruhini rahbari.

Yuzboshi - yuz kishilik dastasining boshlig'i.

Daxboshi - o'n nafarlik jangiy dastasining sardori.

Xazinachi - davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Viloyat markazida ham xazinachi bo'lgan.

Eshikog'aboshi - eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlarining va soqchi-mulozimlarning sardori. Notanish kishilarni xon huzuriga ijazatsiz qo'ymaslikka javob beradi.

Parvonachi - bu unvon boshqa unvonlarning egalariga ham beriladi. Uning egasi o'zining xonga yaqiligidan foydalanib, xat va arizalarni saroyga olib kirib, u yerdan ketma-ket parvonadek javobini olib chiqardi. (Buxoroda XII darajali mansabdor).

Dodxoh - saroy unvonlaridan. Xon oldiga boshqalarning istak va maqsadlarini (doston-adolat yig'uvchi sifatida-mual) bayon etish huquqiga ega mansab.

Dasturxonchi - xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar mansab.

Tunqator - yani, tungacha uyg'oq soqch. Xonning istirohati va yurishlari vaqtda muhofazat qilardi. Xonga yaqin kishilardan tayinlanadi.

Sharbatdor - eng oliy va faxriy unvonlardan. Xonga xos majlislarda va safarlarida xizmat qilardi.

XIX asrning 70-yillarida Qo'qonda bo'lgan Aleksandr Kun ma'lumotiga qaraganda, qo'shbegidan quyida bo'lgan mansabdorlar xon qabuliga kira olmay, uning rikob (uzangi axli) qatoriga kirmaganlar. Madrasa, masjid, mozorlar o'zlarining vaqf mulklariga sohib bo'lib, shu vaqf daromadidan o'z xizmatchilariga haq beradilar. Vaqf mulklariga mutavalli mutassaddiy-boshliq edi. Bu mansabga vaqf qiluvchi zot o'z nomzodini ko'rsatish yoki mutavallilik qilishi mumkin bo'lardi. Vaqflar oq vaqf va qora vaqflarga bo'linardi. Oq vaqf xiroj va soliqlardan ozod qilingan bo'lib, qora vaqf xazinaga xiroj va boshqa joriy soliqlarni to'lashi lozim edi. Xonlikdagi toifalardan ruhoniylar mulkdorlar sifatida maxsus imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ma'lumotlarga qaraganda msusulmon aristokratiyasi xonlar tomonidan berilgan (tasdiqlangan) inoyatnomalar orqali soliq to'lamaslik imtiyoziga, nazru niyoz olish huquqiga ega bo'lganlar.

Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan asosiy unvon va mansablarning daraja va martablarini aniqlash bo'yicha ishlar boshqa olimlar tomonidan ham olib borilayotgandir. Shuning uchun eng keng ma'noda ularning yangi, qo'shimcha fikrlari va nuqtayi nazarlari bizga juda muximdir. Bu masalalarni turli davlatlardagi amal va mansablar bilan qiyosiy o'rganish ham foydadan holi emas.

Har bir davlatning boshqaruv tizimida amaldor shaxslarning o'rni kattadir. Turkiston xonliklarida xam oliy hukmdor o'z hokimyatini maxsus amaldorlar va xizmatchilar orqali amalga oshirgan asrlar davomida sharqona davlatchilik tizimi muayyan bir tartibga kiritilgan edi o'tmishda qaysi bir davlatning markazlashtirilgan hokimiyati mustahkam bo'lsa, u davlat rivojlangan. O'zbek davlatchilik tarixining dolzarb bo'lib qolishini nazarga olsak davlat boshqaruvi bilan bog'liq muommolardan yana biri jamiyatdagi tabaqalar va turli ijtimoiy guruhlarni o'rganilishidir. Kelajakda O'zbekiston hududlarida shakllangan davlatlarning tarixini, ularda joriy etilgan boshqaruv tizimini, amallar, unvon va mansablarni o'rganilishi, davlat xizmatchilarining jamiyatdagi o'rinlarini o'rganish ham juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmon Vohidov Rahbar Xoliqova "Markaziy Osiyodagi Davlat boshqaruv tarixi" dan
2. Avaz Muhammad Attor Xo'jandiy "Tarixi jahonnomai" asari 331-bet
3. Mirza Badiy Divon "Majmua ul-akrom" asari
4. Tamkin Abdurahmon Buxoriy "Matoli al-fohira va matolib at-tarix" asari
5. Muhammad Yunus Shig'ovul "Tarixi Aliquli lashkar" asari
6. Abu Ubaydulloh Toshkandiy "Xulosat al-ahvol" asari 122-bet



7. Fazliy Farg'oniy "Umarnoma" asari 296-bet